

BOLALARNI YETUK SHAXS SIFATIDA TARBIYALASHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Raximberdiyeva Mehriniso Xosilbek qizi

Ajiniyoz nomidagi NDPIning Pedagogika
fakulteti Psixologiya talim yönalishi 2-Z guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15814059>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarni yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda psixologik yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Z. Freyd, E. Erikson, L.S. Vygotskiy kabi olimlarning nazariyalari hamda gumanistik va kognitiv-psixologik yondashuvlar asosida bolada shaxsiy salohiyatni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: bola tarbiyasi, shaxs rivoji, psixologik yondashuv, gumanistik psixologiya, ijtimoiy muhit, yetuk shaxs, emotsional rivojlanish.

PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO RAISING CHILDREN AS MATURE INDIVIDUALS

Abstract. This article covers the theoretical and practical aspects of psychological approaches in raising children as mature individuals. Based on the theories of such scientists as Z. Freud, E. Erikson, L.S. Vygotsky, as well as humanistic and cognitive-psychological approaches, the issues of developing a child's personal potential were analyzed. The article also provides practical recommendations.

Keywords: child-rearing, personality development, psychological approach, humanistic psychology, social environment, mature personality, emotional development

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ВОСПИТАНИЮ ДЕТЕЙ КАК ЗРЕЛЫХ ЛИЧНОСТЕЙ

Аннотация. В данной статье освещены теоретические и практические аспекты психологических подходов в воспитании детей как зрелых личностей. На основе теорий таких ученых, как З. Фрейд, Э. Эриксон, Л.С. Выготский, а также гуманистического и когнитивно-психологического подходов проанализированы вопросы развития личностного потенциала у ребенка. В статье также даны практические рекомендации.

Ключевые слова: воспитание ребенка, развитие личности, психологический подход, гуманистическая психология, социальная среда, зрелая личность, эмоциональное развитие.

Bugungi globallashuv, axborot tezligi va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar zamonida shaxs tarbiyasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bolalik davridan boshlab yetuk, mas’uliyatli, mustaqil fikrlovchi va barqaror ijtimoiy munosabatlarga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirishda psixologik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Psixologiya fanida shaxs rivojiga oid turli nazariyalar mavjud bo‘lib, ular bolalarni tarbiyalash jarayonida samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Psixologiyada bolani shaxs sifatida tarbiyalash masalasi ko‘p jihatdan quyidagi nazariyalar asosida talqin qilinadi:

Z. Freydning psixoanalitik yondashuvi – bola shaxsi ongsiz jarayonlar asosida shakllanadi, ilk bolalikdagi psixoseksual bosqichlar tarbiyaga ta’sir ko‘rsatadi [1].

E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi – bola har bir rivojlanish bosqichida ijtimoiy muammolarni hal qilish orqali shaxs sifatida shakllanadi. Masalan, 3–6 yoshdagi bolalarda tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash muhim [2].

J. Pajening kognitiv rivojlanish nazariyasi – bola aqliy rivojlanish bosqichlaridan o'tib, muammoni hal qilish, mantiqiy fikrlashni o'zlashtiradi. Bu esa yetuk shaxsga xos xususiyatdir [3].

L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi – bola rivojida ijtimoiy muhit, oila va matab muhim omillardan biridir. "Yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasi asosida bola mustaqil fikrlovchi shaxsga aylanishi mumkin [4]. Bugungi kunda bolani yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda quyidagi psixologik yondashuvlar keng qo'llanilmoqda: Gumanistik psixologiya (A. Maslou, K. Rojers) – bolada ichki salohiyatni ochish, o'zini anglash, o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bunda bolaga shart qo'yilmasdan mehr va qabul muhitida o'sish imkoniyati yaratiladi [5]. Pozitiv psixologiya (M. Seligman) – bolaning kuchli jihatlariga e'tibor qaratish, ijobiy emotsiyalarni shakllantirish, hayotdan ma'no izlash orqali shaxsiy yetuklik rivojlanadi.

Kognitiv-behavioral yondashuv – bolada noto'g'ri fikrlash va xatti-harakatlarni tuzatish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda foydali [6].

Bolalarni yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda quyidagi psixologik yondashuvlardan amaliyotda foydalanish tavsiya etiladi:

Tarbiyaviy suhbatlarda bolaning fikriga hurmat bilan qarash, ularni eshitish;

Ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan shaxsiy namunaviy xatti-harakat ko'rsatish;

Bolada mustaqil qaror qabul qilishga imkon yaratish, tanlov huquqini berish;

Emotsional muvozanat, o'z-o'zini anglash va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi treninglar, o'yinlar tashkil qilish;

Har bir bolaga individual yondashuv asosida uning qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish.

Bolalarni yetuk shaxs sifatida tarbiyalash murakkab va uzlusiz jarayon bo'lib, bunda psixologik yondashuvlar muhim o'rinni egallaydi. Turli nazariyalar va zamonaviy metodlar orqali bolada mustaqillik, ijtimoiy javobgarlik, o'ziga ishonch va ichki intizom kabi sifatlarni rivojlantirish mumkin. Bola tarbiyasida faqat ta'lim emas, balki uning emotsional holati, ijtimoiy muhit va psixologik ehtiyojlarini ham e'tiborga olish zarur. XXI asr – axborot, texnologiyalar va tezkor ijtimoiy o'zgarishlar davri. Bunday sharoitda jamiyatga moslasha oladigan, mustaqil fikrlovchi, barqaror emotsional holatga ega, ijtimoiy mas'uliyatni his eta oladigan yetuk shaxslar zarur. Shuning uchun ham bola tarbiyasiga psixologik yondashuvlar orqali qarash hozirgi zamonda muhim ilmiy va amaliy masalaga aylangan. Bolani yetuk shaxs sifatida shakllantirish faqatgina bilim berish emas, balki uning ichki dunyosi, ehtiyojları, hissiyotları, qiziqishları, ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog'liqidir. Psixologik yondashuvlar bola tarbiyasida faqat didaktik metodlardan emas, balki bolani holis tushunish, unga emotsional va kognitiv jihatdan yondashish imkonini beradi. Bolaning psixik rivojlanishi, shaxsiyati va hayotiy pozitsiyasini shakllantirishda bir qator psixologik nazariyalar muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy psixologiyada esa gumanistik yondashuv asosiy o'ringa chiqmoqda. A. Maslou shaxsiy o'sishning muhim sharti – bu shaxsning o'zini anglash, o'zini ro'yobga chiqarish, o'z salohiyatini to'liq yuzaga chiqarish ekanini aytgan. K. Rojers esa bolaning qabul qilinishi,

shartsiz mehr va ijobiy emotsiyal muhit orqali u o‘zining “men” kontsepsiyasini shakllantirishini urg‘ulagan [5]. Pozitiv psixologiya vakillari (M. Seligman, Chikszentmihayi) bolalarning kuchli jihatlariga tayangan holda ularni optimistik dunyoqarashga o‘rgatish, shukr qilish, maqsad qo‘yish va unga erishish qobiliyatlarini shakllantirish orqali yetuk shaxs sifatida rivojlantirish mumkinligini asoslashmoqda. Bugungi kunda maktablarda “emotsional intellekt” va “hayotiy ko‘nikmalar”ni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar aynan shu yondashuvlarga asoslanmoqda [6].

Amaliyotda esa quyidagi jihatlar psixologik yondashuvlarning samaradorligini oshiradi:

Bolani tinglash va tushunishga intilish;

Har bir bolaning qiziqlishi va shaxsiy ehtiyojlariga individual yondashish;

Tarbiyaviy jarayonda bolani ijobiy rag‘batlantirish;

Konstruktiv tanqid va muhokama qilish madaniyatini o‘rgatish;

Oila, mакtab va jamoaning hamkorligini ta’minlash.

Bola – bu faqat bilim oluvchi emas, balki hissiy, ijtimoiy, axloqiy jihatdan rivojlanayotgan shaxsdir. Uni yetuk inson sifatida shakllantirish uchun faqat didaktik usullar yetarli emas. Zarur psixologik sharoitlar, qulay ijtimoiy muhit va emotsiyal qo‘llab-quvvatlov orqali shaxs rivoji to‘la amalga oshiriladi. Bolani yetuk shaxs sifatida tarbiyalash – bu ko‘p qirrali va mas‘uliyatli jarayon bo‘lib, unda psixologik yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Freyddan boshlab to zamonaviy pozitiv psixologiyagacha bo‘lgan nazariyalar asosida bola shaxsining emotsiyal, ijtimoiy va kognitiv rivoji tushuntirib beriladi. Shu boisdan, o‘qituvchi, psixolog, ota-onha va boshqa tarbiyachilar o‘z ish faoliyatida psixologik yondashuvlarga tayangan holda har bir bolaning salohiyatini ochish, uni jamiyatga foydali, yetuk shaxs sifatida shakllantirishlari zarur.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Фрейд З. Введение в психоанализ. — М.: Наука, 1990.
2. Эриксон Э. Детство и общество. — СПб.: Лань, 1996.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь. — М.: Педагогика, 1982.
4. Пиаже Ж. Психология интеллекта. — М.: Эксмо, 2003.
5. Маслоу А. Мотивация и личность. — СПб.: Питер, 2008.
6. Seligman M. E. P. Flourish: A Visionary New Understanding of Happiness and Well-being. — New York: Free Press, 2011.
7. Rogers C. On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. — Houghton Mifflin Harcourt, 1995.
8. Чиксентмихайи М. Поток. Психология оптимального переживания. — М.: Альпина Паблишер, 2016.
9. Axmedova N. Psixologiya asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
10. Karimova R.X. Bola va o‘smirlar psixologiyasi. — Toshkent: TDPU, 2021.